

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.A.Yuldashev	
Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaatlarni tadqiq etishning muhim jihatlari	108
M.M.Teshaboyev	
Jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglik	115

SIYOSAT

H.M.Rasulov	
Ommaviy axborot vositalari - siyosiy-huquqiy madaniyat targ'iboti subyekti sifatida	120
K.X.Avazov	
Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	124
B.M.Jo'raquliev	
Yangi O'zbekistonda "inson – jamiyat – davlat" tamoyilining qaror topishi xususida	129
D.A.Mamajonova	
Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash. ma'muriy, jinoyat va fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish.....	133
I.A.Raximov	
"Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining-milliy demokratik institut sifatidagi o'rni"	138

TARIH

E.G.Radjapov	
Badiiy hamda san'at asarlarida o'zbek tog'-otliq diviziyasi qo'mondoni Mirkomil Mirsharopov talqini	142
B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov	
Ilk Temir davrida ko'mish marosimiga oid	148
X.S.Jumanazarov	
Turkiston o'lkasida tibbiy muassasalar faoliyati tarixi.....	154
S.R.Tolibova	
O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan hamkorlik yo'nalishlari (Asean davlatlari misolida)	159
X.X.Azimov	
Qadimgi va ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo va Xitoy savdo aloqalari (Xitoy manbalari asosida)	167
K.S.Karimov	
Turkistonda mustamlaka huquqiy taksanomiyasi ta'sirida xalq sudyalari lavozimiga tayinlash tartiblari.....	171
N.Xudoyberdiyeva	
Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida tadbirkorlikning rivojlanishi	176
F.U.Temirov	
Turkistonda matbuotchilikning shakllanishi va Sadriddin Ayniyning publisistik faoliyati	179
M.H.Isamiddinov	
O'zbekistonning antik davr moddiy madaniyatining o'ziga xos tomonlari.....	183

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov	
Omon Muxtor romanlariga chizgilar	188
M.H.Mamatov, P.M.Ahmadjonov	
Sayfiddin Muhammad Farg'oni yodida tasavvufiy tamoyillar	191
P.M.Axmadjonov	
Sayf Farg'oniyning tarjimai holi va hayot yo'liga doir	195
G.H.Axmedova	
Ingliz adabiyotida jorj eliotning ijodi va tanqidiy realizm	200
G.V.Abdullayeva	
Topishmoq she'rlar va ularning badiiy-estetik funksiyasi	204

MUSTAQILLIK YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATIDA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHI**РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ****DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN SURKHANDARYA REGION DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE****¹Xudoyberdiyeva Nigora**¹Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada tadbirkorlikning davlat taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlashdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Mamlakatimizning eng janubiy viloyati hisoblangan Surxondaryo viloyatida mustaqillik yillarida tadbirkorlik sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tarixiylik tamoyili asosida tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье показано значение предпринимательства в обеспечении развития государства и благосостояния народа. В Сурхандарьинской области, которая является самым южным регионом нашей страны, по принципу историчности проанализированы реформы, реализованные в сфере развития предпринимательства за годы независимости.

Abstract

This article shows the importance of entrepreneurship in ensuring the development of the state and the well-being of the people. In the Surkhandarya region, which is the southernmost region of our country, the reforms implemented in the field of entrepreneurship development over the years of independence were analyzed based on the principle of historicity.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, kichik biznes va xususiy mulkchilik, Surxondaryo, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, baliqchilik, To'palang GES.

Ключевые слова: предпринимательство, малый бизнес и частное предпринимательство, Сурхандарьинская область, экономика, сельское хозяйство, рыболовство, Топалангеская ГЭС.

Key words: entrepreneurship, small business and private entrepreneurship, Surkhandarya region, economy, agriculture, fishery, Topalang hydroelectric power station.

KIRISH

Tadbirkorlik tushunchasi bir qarashda juda ham sodda hammaga ravshandek tuyulsada, aslini olganda esa bu tushunsha juda murakkab va ko'pqirrali ijtimoiy-iqtisodiy hodisa hisoblanadi. Avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeter "Tadbirkorlik barcha turdagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga xos hodisa bo'lib, ularning nafaqat tarkibiy qismi balki iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuch", – deb ta'rif bergan. U o'z fikrlarini davom ettirar ekan, "tadbirkorlikni ayrim hollarda o'z-o'zidan mavjud bo'lgan narsa deb e'tiborsizlik bilan qarashlarini tanqid qilib, tadbirkorlik mavjud bo'lmagan iqtisodiyotni tasavvur qilib ko'rishni tavsiya etadi".

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadbirkorlikka oid dastlabki ilmiy ishlar XVIII asrlarda amalga oshirilgan bo'lsada, lekin tadbirkorlik va xususiy mulk haqidagi ilk qarashlar qadimgi davrlarda ham mavjud bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan qadimgi yunon olimi Aristotel o'z qarashlarida: "Jamiyatdagi fuqarolarning xususiy mulkka egalik qilishini e'tirof etadi, chunki mulkka egalik inson tabiatiga xos xususiyadir", – deb ta'kidlab o'tadi. XX asrda yashagan ingliz olimi Karl Popper o'zining "Ochiq jamiyat va uning dushmanlari" asarida tadbirkorlikning ochiq, fuqarolik jamiyati qurishdagi ahamiyatiga alohida ahamiyat qaratadi.

Surxon vohasida tadbirkorlik, xususan viloyat tadbirkorlik salohiyatining asosiy yo'nalishlaridan hisoblangan dehqonchilik, savdo-sotiq, qishloq xo'jaligi taraqqiyoti masalasida bir qator olim va tadqiqotchilar izlanishlar amalga oshirganlar. Jumladan, tarix fanlari doktori, professor S.N.Tursunov, E.O. Qobulov, T.Pardayev, tarix fanlari nomzodi F.J.Yormatov kabi tadqiqotchilar tomonidan Surxondaryo tarixi, uning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi borasida bir qator samarali tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, S.N.Tursunovning "Surxondaryo tarixi" nomli kitobida

TARIX

vohada tadbirkorlik tarixi, uning bugungi kundagi holati va rivojlanish istiqbollari xususida qimmatli mulohazalar keltirilgan. [5]

E.O.Qobulov tomonidan yozilgan “Surxon vohasida qishloq xo‘jaligi rivoji” nomli kitobda esa voha qishloq xo‘jaligining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni, uning iqlimi va dehqonchilikdagi yutuq hamda tajribalar borasida tarixiylik tamoyili asosida mulohazalar keltirilgan. [6]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasi uchun qo‘llaniladigan qiyoslash, analiz, sintez kabi metodlardan va tarixiylik tamoyilidan foydalanildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo‘lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini alohida qayd etish zarur. O‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo‘yicha qulay ishbilarmonlik muhiti va ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi. [4] 2017- yil 7-fevralda qabul qilingan PF-4947–sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Prezident Farmonida [1] ham aynan iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari 2019-yil 21-noyabrda PQ-4525 sonli “Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo‘llab- quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarini qo‘llab- quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-18 sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2020- yil 14-oktabrda qabul qilingan PQ-4862 sonli “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2023-yil 10-fevralda qabul qilingan PF-287-sonli “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab- quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va boshqa bir qancha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar mamlakatimizda tadbirkorlik salohiyatini oshirishga qaratilgan muhim tarixiy hujjatlar hisoblanadi.

Surxondaryo viloyati o‘zining iqtisodiy salohiyati, tabiiy boyliklari bilan mamlakatimiz taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega. Mustaqillik yillarida ana shu salohiyat va imkoniyatlardan xalqimiz manfaatlarini yo‘lida foydalanish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Viloyat iqtisodiyoti jadal sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. Buni 2016-yilda yalpi hududiy mahsulotning 8 foizga o‘sishi ham tasdiqlaydi. To‘palang GESi, Jarqo‘rg‘on neftni qayta ishlash zavodi, “Sharg‘un but”, “Xujaykon tuz” aksiyadorlik jamiyatlari, Xonjiza kon-qayta ishlash majmuasi kabi yirik korxonalar viloyat sanoatida yetakchi o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik izchil rivojlanmoqda. Ushbu tarmoqning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 75,3 foizni tashkil etadi. Ish bilan band aholining 80 foizdan ortig‘i aynan shu sohada mehnat qiladi. [5]

Surxondaryolik fermer va dehqonlar yil davomida yurtimiz bozorlarida xalq farovonligi, to‘kin-sochinlikni ta‘minlashga munosib hissa qo‘shmoqda. Mamlakat ekin maydonlarining 7 foizi aynan Surxon vohasiga to‘g‘ri keladi. Mamlakatimizda yetishtirilayotgan paxta va g‘allaning 8-9 foizi, meva-sabzavotning 11 foizdan ortig‘i voha dehqonlari tomonidan yetkazib berilmoqda. Keyingi yillarda paxta maydonlarining qisqarishi, qishloq xo‘jaligidagi tarkibiy o‘zgarishlar natijasida meva-sabzavot yetishtirish hajmi ortib, qayta ishlash sanoati rivojlanmoqda.

Viloyatdagi “Gold Agro Fresh” agrofirma sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilish bo‘yicha istiqbolli loyihalardan biridir. Qiymati 35 million dollar bo‘lgan mazkur inshootning zamonaviy issiqxonasida yiliga 30 million dollarlik mahsulot eksport qilinib, mingta ish o‘rni yaratilgan. Ayni paytda 20 gektar maydonda 15 massivda pomidor, gulkaram, brokkoli, rukkola, yalpizning xaridorgir navlari yetishtirilmoqda. Barcha 70 blok ishga tushirilgach, issiqxonalar maydoni 100 gektardan oshadi. Shuningdek, 434 gektar maydonga mavsumiy ekinlar ekish, undan 23 million dollarlik mahsulot eksport qilish, 2 ming 100 nafar aholini ish bilan ta‘minlash, kelgusida 100 gektar maydonda intensiv bog‘ barpo etish rejalashtirilgan. [2]

Viloyatning Qiziriq tumanida ikki ming bosh qoramol boqiladigan zamonaviy chorvachilik majmuasi barpo etilmoqda. 762 gektar maydonda bunyod etilayotgan umumiy qiymati 11,5 milliard

so'mlik chorvachilik majmuasida yiliga 4 ming tonna sut va 200 tonna go'sht yetishtiriladi. 2,5 milliard so'mlik zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanadigan korxonada yuzdan ortiq kishini ish bilan ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Mamlakatimizda aholi farovonligini yanada yuksaltirish, uni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida chorvachilik, baliqchilik, parrandachilik va boshqa tarmoqlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Barcha hududlarda yangi korxona, fermer xo'jaliklari foydalanishga topshirilmoqda. Ayni paytda Surxondaryo viloyatida 186 baliq yetishtirish majmuasi faoliyat yuritmoqda. Tez orada ularning safiga "Termiz agro Fish Export" agrofirma ham qo'shiladi. Bu yerda baliq yetishtirish bilan birga baliq yemi ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Baliq mahsulotlari eksport qilinadi. Korxonada Vyetnam texnologiyasidan foydalangan holda bir necha turdagi baliqlarni yetishtirish rejalashtirilgan. Bu texnologiya an'anaviy texnologiyalardan foydalanishga qaraganda besh barobar ko'p baliq yetishtirish imkonini beradi. Majmuada 500 tonna baliqni qayta ishlash, 105 ish o'rni yaratish rejalashtirilgan. [3]

Qayd etib o'tish lozimki, Surxondaryo viloyati baliqchilikni rivojlantirish uchun qulay tabiiy-iqlim sharoiti, suv resurslariga ega hududlardan hisoblanadi. Buning uchun baliqchilik sohasida zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirgan mutaxassislarni tayyorlash ham soha rivojiga munosib hissa qo'shadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish lozimki, mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida viloyat iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, sanoat korxonalarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish borasida qator istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida viloyatda aholi yashash sifatining yuksalishiga, mamlakat iqtisodiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan sohalar rivojiga imkon yaratib bermoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Davlatova S. Mustaqillik yillarida Surxon vohasi aholisi an'anaviy hunarmandchiligining rivojlanish xususiyatlari. // "Boysun-bahori" ochiq folklor festivali. "Jahon sivilizatsiyasida Boysunning moddiy va ma'naviy madaniyati" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to'plami. -Toshkent. 2019. B 83-84.
3. Majidov N, Namatov E. Hududlarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida kichik biznesning roli. // Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini yumshatish omillari va uni bartaraf etish yo'llari. -Toshkent., 2019. -B 74.
4. O'z MA. Fond- M-37, 1-ro'yxat, 6299-yig'ma jild, 7-varaq.
5. Tursunov S., Qobilov E., Pardayev T., Murtazoyev B., *Surxondaryo tarixi*, – Toshkent: Sharq, 2004. 452 b.
6. Qobulov E.O. Surxon vohasida qishloq xo'jaligi rivoji. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 390 b.